

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ALIMOV TOHIR EGAMSHUKUROVICH

**O‘ZBEK, NEMIS, RUS TILLARIDA MAISHIY LEKSIKANING SEMANTIK
VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

Alimov Tohir Egamshukurovich

O'zbek, nemis, rus tillarida maishiy leksikaning semantik va funksional
xususiyatlari.....5

Алимов Тоҳир Эгамшукуровиҷ

Семантические и функциональные особенности бытовой лексики в
узбекском, немецком и русском языках.....27

Alimov Tohir Egamshukurovich

Semantic and Functional Features of Household Vocabulary in the Uzbek,
German, and Russian Languages.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ALIMOV TOHIR EGAMSHUKUROVICH

**O‘ZBEK, NEMIS, RUS TILLARIDA MAISHIY LEKSIKANING SEMANTIK
VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.1.PhD/Fil2231 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kulmamatov Dusmamat Sattarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Akmal Gulamjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Nazarov Sardor Xasanovich
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti.


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" avgust soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G9-A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1237 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G9-A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "17" iyul kuni tarqatildi.

(2026 yil "17" iyul da 12 raqamli reyestr bayonnomasi).




A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.f.d., professor


X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filol.f.d., professor


J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli tizimli, jumladan, qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning leksik qatlamini qiyosiy-chog'ishtirma asosda zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda maishiy leksikaning semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy leksikologiya, semantika, lingvokulturologiya va korpus lingvistikasi doirasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksemalarning struktur-semantik, funksional va lingvokulturologik xususiyatlarini yagona qiyosiy metodologiya asosida kompleks masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois, ushbu tillarning maishiy leksikasini qiyosiy-chog'ishtirma va lingvokulturologik aspektda kompleks o'rganish va natijalarni qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillarni o'qitish amaliyotiga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

Dunyoda til taraqqiyoti va globallashuv sharoitida Yevropa hamda Sharq tillari leksikasini qiyosiy-chog'ishtirma asosda o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, semantika, lingvomadaniyatshunoslik va korpus lingvistikasi yo'nalishlarida leksik birliklarning semantik, funksional hamda milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turli tizimli tillardagi maishiy leksikaning kelib chiqishi, semantik taraqqiyoti va funksional xususiyatlarini lingvomadaniy aspektda kompleks o'rganish, ularning universal va milliy belgilarini aniqlash hamda natijalarni tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy tillarni o'qitish amaliyotiga tatbiq etish dolzarb ilmiy yo'nalish sanaladi. Mazkur nuqtai nazardan o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksemalarni qiyosiy-chog'ishtirma asosda tadqiq etish qiyosiy tilshunoslik nazariyasini yangi ilmiy natijalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'zbek tilining nufuzini oshirish, uni davlat tili sifatida mustahkamlash hamda bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunga dalil vatanimizda uning nafaqat rus, balki boshqa, jumladan, nemis tili bilan bevosita muloqot qilishga sharoit yaratilganligidir. "Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Har qanday xalq uchun o'ta hassos va ta'sirchan bo'lgan til masalasida ortiqcha ehtiros va hissiyotlarga berilmasdan, uzoqni o'ylab, vazminlik bilan ish tutish kerakligini hammamiz yaxshi anglaymiz. Zero, davlat tili faqatgina soha mutaxassislarining emas, balki ko'pmillatli butun xalqimizning birgalikdagi sa'y-harakatlari, aql-zakovati, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, vatanparvarlik fazilatlarini bilan ravnaq topadi"¹. Bu borada o'zbek tilining milliy leksik boyligini qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik asosida tizimli tadqiq etish, o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksemalarning semantik, funksional hamda

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг 35 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – Тошкент, 2024, 21 октябрь // <https://president.uz/oz/lists/view/7628> (Murojaat sanasi: 30.09.2025).

lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish, ularning universal va milliy o'ziga xos belgilarini aniqlash, shuningdek, tadqiqot natijalarini qiyosiy tilshunoslik, leksikografiya, tarjimashunoslik va xorijiy tillarni o'qitish amaliyotiga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 26-maydagi PF-98-son "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda maishiy leksemalarning bir qancha jihatlari, xususan, struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda S.Ibrohimov, T.Dadaxonova, M.Asomutdinova, T.Tursunov, Yu.K.Eshonqulov, L.G'afurova, Sh.Nurullayeva, Sh.Usmonova, M.Abdiev, X.X.Berdiyev, A.E.Mamatov,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 26-maydagi PF-98-son "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari.

D.S.Qulmamatov, X.L.Maxammadiyev, S.Jumanova³ kabi olimlarning hissasi katta.

Germaniyada esa maishiy leksikaning kageforial xususiyatlari R.Wolfgang, K.Schröder, W.Dressler, K.Ehlich, B.Lehnert, W.Putsch, N.Dittmar, E.Schwarz, B.Schlucker, J.Lanwer, H.Ludger, G.Jäger⁴ kabi tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

Rossiyada A.F. Ivanova, G.A.Vlasova, V.V.Vinogradov, A.Yuldashev, A.K.Borovkov, L.V.Sherba, G.V.Sudakov, R.A.Budagov, G.N.Starchenko⁵ singari tilshunoslar turli tillarga oid maishiy leksik birliklarning shakllanishi va rivojlanishi, qo'llanilishi hamda tasniflanishiga oid qator ilmiy ishlar olib borganlar.

³ Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent: Fan, 1959. – 456 b.; Dadaxonova T. O'zbek tilida chevarchilik leksikasi. – Toshkent: Fan, 1963. – 80 b.; Asomutdinova M. O'zbek tilida kiyim-kechak nomlari va ularning qismlari. Diss. – T.: Fan, 1970. – 226 b.; Tursunov T. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi. – Toshkent: Fan, 1978. – 138 b.; Эшонкулов Ю.К. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Фафурова Л. Бытовая лексика современного узбекского языка: монография. – Ташкент: Фан, 1991; Nurillayeva Sh. Xorazm vohasi o'zbeklari an'anaviy kiyimlari. Diss. – T. 2002. – B. 203; Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший техника. – Тошкент: Фан, 2015; Abdiev M.B. On some features of the Uzbek culinary dictionary // Language in the field of professional communication. Collection of materials from the international scientific and practical conference: Ekaterinburg. 2016. – Pp. – 68–73; Berdiyev X.X. O'zbek tilining o'tovsozlik leksikasi. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Samarqand: 2017. – B. 15; Маматов А.Э. Замонавий лингвистика: ўқув қўлланма. – Тошкент: “Ношир” нашриёти, 2019. – 168 б.; Кулмаматов Д.С., Кулмаматов К. Д. Проблемы сравнительного языкознания, сравнительного литературоведения и переводоведения // Таълим тизимида инновацион фаолиятни ривожлантиришда хорижий тилларни ўқитишдан самарали фойдаланиш масалалари. халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Термиз: ТерДУ нашриёт матбаа маркази, 2022. – С. 275–278; Maxammadiyev X.L. Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlari tahlili haqida. Aniq fanlar [seriyasi](#), 2022. – B. 1-9; Jumanaova S. Kiyim-kechak nomlari tilning boyish Manbai sifatida// Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. <https://www.researchgate.net/journal/Iztimoiy-gumanitar-fanlarning-dolzarb-muammolari-Aktualnye-problemy-socialno-gumanitarnyh-nauk-Actual-Problems-of-Humanities-and-Social-Sciences-2181-1342?tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFZnSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19> 2024 – B. 4.

⁴ Wolfgang R. Langenbucher “Sensationen des Alltags: Meisterwerke des österreichischen Journalismus Österreichische Staatsdruckerei”. Verlag. – Wien, 1992. – 118 p.; Schröder K.U. Computer, Linguistik und Phonetik zwischen Sprache und Sprechen. – Frankfurt am Main: Peter Lang Verlag, 1998. – 385 p.; Dressler W. U. Sprachwandel und Sprachgebrauch in der Verwaltungssprache. – Heidelberg: Winter Verlag, 1998. – 317 p.; Ehlich K. Alltägliche Wissenschaftssprache. In Info DaF 26, 1. 1999. S. 3–24; Lehnert B. Alltagslexikon. – Stuttgart: Metzler Verlag, 1995. 656 p.; Glück H. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Stuttgart: Metzler. 2013. – Pp. 499–502; Putsch W. Deutsch als Fremdsprache: Einführung in die Linguistik. 2000; Dittmar N. The Language of Public Administration. – Berlin: De Gruyter, 2003. – 314 p.; Schwarz E. Die Mongolen: im Reich des Dschingis Khan. – Mongols-History, 2005. – S. 132; Schlucker B. Wortbildung, Konkurrenz zwischen Komposita und Phrasen, Lexikonentwicklung. De Gruyter Verlag, Berlin. 2014; Lanwer, J.P. Lanwer, Jens. Philipp. Regionale Alltagssprache: Berlin & Boston: De Gruyter. 2015; Ludger H. Alltagssprache. Erzählen aus funktional-pragmatischer Perspektive. In: Zeitschrift für Literaturwissenschaft und Linguistik 48/2. München: Fink Verlag, 2018. – S. 203; Jäger G. Einführung in die Klassische Philologie. 2020. – S. 15.

⁵ Иванова А.Ф. Диалектные наименования одежды (материалы к словарю Московской области). // Уч. зап. МОПИ им. Н.К. Кружковой. – М., 1964. Т. 148. Вып 10.-С. 442-464; Власова Г.А. Некоторые названия женской одежды в говорах Брянской области. // Брянские говоры. Материалы и исследования. – Л., Уч. зап. ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1968. Т. 325. – С. 184–190; Виноградов В.В. Семнадцатитомный академический словарь современного русского литературного языка и его значение для советского языкознания // Вопросы языкознания. – М., 1966. – С 6; Юлдашев А.А. Принципы составления тюрко-русских словарей. – М., 1972; Боровков А.К. Названия растений по Бухарскому списку “Мукаддима-ал-адаб //Тюркская лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1971. – 231 б.; Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Языковая система и речевая деятельность. – М.: Наука, 1974. – С. 265–304; Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – М.: Изд-во МГУ, 1989 – 151 с.; Starchenko G.N. The ways for forming students' speech competence in the lessons of russian as foreign and a foreign language. 2023. – P. 90.

Shuningdek turli tillar doirasida maishiy leksikani o'rganish hamda bunday so'z va iboralarning har bir til leksik qatlamidagi o'rni va ahamiyatini tavsiflashda T.Xayrutdinovanning tatar tiliga, N.Erlenbaevaning oltoy tiliga, X.Ishbulatovanning boshqird tiliga, E.Abdullayevaning qumuq tiliga⁶ tegishli bo'lgan maishiy (kiyim, taqinchoqlar, taom, uy-ro'zg'or, uy-xo'jalik mahsulotlari) leksikaning kelib chiqishi, shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganishga bag'ishlangan ishlarini alohida e'tirof etish lozim.

Biroq tilshunoslikda hozirgi kungacha o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksikaning milliy-madaniy va funksional xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma planda tadqiq etishga qaratilgan maxsus ilmiy ishlar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Til va tarjima birliklarining lingvistik va ekstralingvistik masalalarini tadqiqi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek, nemis va rus tillarida maishiy leksikaning qiyosiy-chog'ishtirma aspektda semantik, funksional va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek, nemis va rus tilshunosligida maishiy leksikaning o'rganilish darajasini aniqlash va "maishiy leksika" tushunchasining ilmiy-nazariy mezonlarini belgilash;

tadqiq etilayotgan tillardagi maishiy leksikani mavzuviy guruhlariga (uy-ro'zg'or, kiyim-kechak, taom nomalar va h.k.) ajratgan holda ularning semantik maydon tarkibini qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilish;

maishiy leksemalarning shakllanish tarixi, etimologik qatlamlari hamda taraqqiyot bosqichlaridagi ma'noviy o'zgarishlarni (kengayish, torayish) aniqlash;

maishiy leksikaning badiiy, OAV va rasmiy matnlarda lingvomadaniy o'ziga xosligini tahlil qilish;

o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksik birliklarning ekvivalentlik va ekvivalentsizlik munosabatlarini qiyosiy-chog'ishtirma aspektda ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek, nemis va rus tillari badiiy, ommaviy axborot hamda rasmiy hujjatlar matnlarida qo'llanilgan maishiy leksika tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek, nemis va rus tillari maishiy sohaga oid leksikaning struktur-semantik, funksional hamda lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy-chog'ishtirma, struktur-semantik, funksional, statistik, komponent, krosskultur va lingvomadaniy tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

⁶ Хайрутдинова Т.Х. Бытовая лексика татарского языка. — Казань: Фикер, 2000. — 128 с.; Еrlenbaeva H.B. Бытовая лексика алтайского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Уфа: 2005. — 18 с.; Ишбулатова X. Бытовая лексика башкирского языка (семантика, структура, источники формирования): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Уфа: 1999. — 20 с.; Абдуллаева Э. Бытовая лексика кумыкского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Махачкала: 2013. — 22 с.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek, nemis va rus tillari tizimida maishiy leksik birliklarning shakllanishi, semantik taraqqiyoti, funksional transformatsiyasi hamda arxaizatsiya jarayonlarida tarixiy taraqqiyot, xalqning turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, milliy-madaniy qadriyatlari va etnik tafakkuridagi o'zgarishlar determinatsion omil sifatida namoyon bo'lishi sababli ijtimoiy-madaniy hamda etnolingvistik omillarning ustuvorligi asoslangan;

o'tov, ot-ulov, kiyim-kechak, taqinchoq hamda taom nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning o'zbek, nemis va rus tillarida funksional-semantik vazifalari, qo'llanish doirasi va lingvomadaniy yuklamasiga ko'ra allomorfik, semantik-struktur tashkil topishi, nominativ modeli hamda leksik-semantik munosabatlariga ko'ra izomorfik xarakter kasb etishi isbotlangan;

o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksik birliklarning lingvomadaniy, etnosemantik, kognitiv-semantik, struktur-nominativ hamda konseptual-pragmatik xususiyatlari o'zaro bog'liq ko'p qatlamli semantik tizimni hosil qilishi, mazkur tizim milliy dunyoqarash, madaniy konseptlar va kommunikativ-pragmatik ehtiyojlarni aks ettiruvchi universal hamda milliy-spetsifik belgilar uyg'unligida namoyon bo'lishi asoslangan;

o'zbek, nemis va rus tillarining badiiy asarlari, ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy hujjatlar matnlarida faol qo'llanuvchi maishiy leksikaning ekvivalent va ekvivalentsiz qatlamlari ajratilib, o'tov, ot-ulov, kiyim-kechak, taqinchoq hamda taom nomlariga oid realialarning qo'llanish chastotasi, funksional faolligi va tarjimaviy ekvivalentlik darajasi statistik-korpus tahlili asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksikaning qiyosiy, chog'ishtirma hamda qiyosiy-tipologik tahlili asosida struktur-semantik va funksional xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik yondashuv hamda tahlil mezonlari ishlab chiqilib, ularning oliy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari belgilangan;

o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksikaning shakllanishi, kelib chiqish tarixi hamda fonetik, semantik va morfologik xususiyatlarini tadqiq etishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy tavsiyanomalar, qiyosiy tahlil algoritmlari va amaliy topshiriqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya", "Lingvokulturologiya" fanlarini o'qitish jarayonida o'zbek, nemis va rus tillaridagi leksemalarning qo'llanish mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot, amaliy mashg'ulotlar tizimi hamda keys-topshiriqlar ishlab chiqilgan;

badiiy matnlarda qo'llanilgan uy-ro'zg'or maishiy leksik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilib, undan badiiy matn tahlili, tarjimashunoslik va lingvokulturologik tadqiqotlarda foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘zbek, nemis, rus tillarida maishiy leksikaning struktur-semantik va funksional xususiyatlari tadqiqini belgilashda nazariy ma’lumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, ushbu tillaridagi tahlilga tortilgan faktik materiallar zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida tasnif qilinganligi, ishonchli nazariy manbalar va lingvistikaning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalanganligi, dissertatsiya ishi bo‘yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda maishiy sohaga oid leksemalarni funksional-semantik, stilistik, ekspressiv-emotsional funksiyalari hamda lingvomadaniy tahlili, qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika va til nazariyasi sohalariga oid tadqiqot muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari xulosalaridan nemis-o‘zbek, nemis-rus tillari orasidagi aloqalarini o‘rganishda “Tilshunoslik” “Leksikologiya”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Umumiy tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya” kabi fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish, maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarini o‘tish, elektron lug‘atlar korpusi uchun fundamental material sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek, nemis, rus tillarida maishiy leksikaning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek, nemis va rus tillari tizimida maishiy leksik birliklarning shakllanishi, semantik taraqqiyoti, funksional transformatsiyasi hamda arxaizatsiya jarayonlarida tarixiy taraqqiyot, xalqning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, milliy-madaniy qadriyatlari va etnik tafakkuridagi o‘zgarishlar determinatsion omil sifatida namoyon bo‘lishi sababli ijtimoiy-madaniy hamda etnolingvistik omillarning ustuvorligi diaxronik va sinxronik yondashuvlar asosida ilmiy asoslanganligiga oid xulosalar 2019-2022-yillardagi Yevropa ittifoqining Erasmus+dasturi ICM, KA-107 – International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects (Yevropa ittifoqi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasidagi kredit safarbarligi) loyihasining tilshunoslik bo‘limida keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025 yil 24-martdagi 171/227-son ma’lumotnomasi). Natijada maishiy sohaga oid leksik birliklardan tashkil topgan elektron lug‘at banki loyiha materiallarining boyishiga xizmat qilgan;

o‘tov, ot-ulov, kiyim-kechak, taqinchoq hamda taom nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning o‘zbek, nemis va rus tillarida funksional-semantik vazifalari, qo‘llanish doirasi va lingvomadaniy yuklamasiga ko‘ra allomorfik, semantik-struktur tashkil topishi, nominativ modeli hamda leksik-semantik munosabatlariga

ko'ra izomorfik xarakter kasb etishi qiyosiy-chog'ishtirma va lingvotipologik tahlillar asosida isbotlanganligiga doir ma'lumotlardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Erasmus+ dasturining 2020-1-DE01-KA107-005433-sonli Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy Ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Boxumdagi Rur universiteti (Germaniya) o'rtasidagi xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025 yil 11-noyabrdagi 04-04-1/6513-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy platformani takomillashtirish hamda o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayonida ilmiy-amaliy asos sifatida qo'llanilgan;

o'zbek, nemis va rus tillaridagi maishiy leksik birliklarning lingvomadaniy, etnosemantik, kognitiv-semantik, struktur-nominativ hamda konseptual-pragmatik xususiyatlari o'zaro bog'liq ko'p qatlamli semantik tizimni hosil qilishi, mazkur tizim milliy dunyoqarash, madaniy konseptlar va kommunikativ-pragmatik ehtiyojlarni aks ettiruvchi universal hamda milliy-spetsifik belgilar uyg'unligida namoyon bo'lishi qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy tahlillar asosida ilmiy asoslanganligiga oid nazariy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2022-2023 yillarda bajarilgan IL-21091378 raqamli "Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025 yil 11-noyabrdagi 04-04-1/6515-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida qiyoslab va chog'ishtirib o'rganilgan o'zbek, nemis va rus tillaridagi o'tov, ot-ulov, milliy kiyim, taom hamda taqinchoqlar nomlarini ifodalovchi leksemalarning milliy-madaniy va struktur-semantik xususiyatlariga oid tadqiqot xulosalari ishlab chiqilgan materiallar va milliy platforma mazmunini shakllantirishda ilmiy-amaliy asos sifatida foydalanilgan;

o'zbek, nemis va rus tillarining badiiy asarlari, ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy hujjatlar matnlarida faol qo'llanuvchi maishiy leksikaning ekvivalent va ekvivalentsiz qatlamlari ajratilib, o'tov, ot-ulov, kiyim-kechak, taqinchoq hamda taom nomlariga oid realialarning qo'llanish chastotasi, funksional faolligi va tarjimaviy ekvivalentlik darajasi statistik-korpus tahlili asosida aniqlanganligiga oid natijalardan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Ruminiyaning Alba Yuliy universiteti bilan hamkorlikda bajarilgan "ICM-"2019-1RR01-KA171-HED 000240030"-sonli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025 yil 11-noyabrdagi 04-04-1/6514-son ma'lumotnomasi). Natijada, aniqlangan ekvivalentli va ekvivalentsiz maishiy birliklarga oid xulosalar xalqaro loyiha doirasida ishlab chiqilgan nazariy asosni shakllantirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi

Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5ta maqola, jumladan, 1ta xorijiy, 4tasi respublika jurnallarida va 5 ta ilmiy-amaliy jurnallarda tezislar nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati tavsiflangan, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ochib berilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari izohlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turli tizimli tillardagi maishiy leksikani o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, bob 2 fasldan iborat. Mazkur bobda o'zbek, nemis, rus tillarida maishiy leksikaning kelib chiqish jarayoni, ularning semantik guruhlarga ajratilish muammolari hamda qiyosiy-chog'ishtirma tahlili ochib berilgan.

Dunyoda barcha tillarning leksik qatlamida maishiy leksikaning mavjudligi sababli tilshunoslar mazkur sohaga e'tibor qaratib, o'z tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Maishiy leksema tarkibidagi sifat so'z turkumiga oid “maishiy” komponenti haqida “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ta'kidlanishicha, mazkur so'z arabcha “hayotiy, hayot, turmushga oid” ma'nolariga ega bo'lgan معيشى leksemasidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “maishatga, tirikchilikka oid” degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, lug'atda ushbu leksemaning ot shakli, “maishat” so'zi polisemantik so'z sifatida kiritilgan, uning “kundalik tirikchilik, yashash” semantikasiga ega ekanligi izohlab ketilgan⁷.

“Maishiy leksika” termini olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, nemis olimi K.Ehlichga ko'ra, “maishiy leksika kundalik hayotda ishlatiladigan, umumiy bilimlarga asoslangan, tushunarli muloqot qilish uchun qo'llaniladigan leksikadir”⁸.

Rus tilshunosi va lug'atshunosi S.I.Ojegovning fikricha, “maishiy deganda insonning umumiy hayot tarzi, kundalik turmushi nazarda tutiladi”⁹.

Bizgacha berilgan ta'riflarga asoslangan holda ishimizda maishiy leksika terminiga quyidagicha ishchi ta'rif berildi: *Insonlarning kundalik hayot faoliyati, ijtimoiy-madaniy tajribasi va ro'zg'or yuritish jarayonlarida shakllangan, madaniyatga xos semantik belgilarni o'zida mujassam etgan, kontekstga qarab*


⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – B. 82.

⁸ Ehlich K. Alltägliche Wissenschaftssprache. – Tübingen: Niemeyer, 1999. – S. 343.

⁹ Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1990. – С. 57.

ma'no darajasi va funktsional yuklamasi o'zgarib turuvchi leksik birliklar majmui maishiy leksika deb ataladi.

Til tizimida maishiy leksika insonning kundalik hayoti, turmushi va muomala faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qatlam hisoblanadi. Ushbu so'zlar to'plami o'z rivojida nafaqat tilning ichki qonuniyatlari ya'ni fonetik, morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlarga, balki til tashqarisidagi omillar, ya'ni ijtimoiy, madaniy, psixologik, tarixiy hamda texnologik shart-sharoitlarga ham bevosita bog'liq tarzda shakllanadi. Shu bois, maishiy leksikani chuqur va har tomonlama tahlil qilishda lingvistik yondashuv bilan birga, ekstralingvistik omillarni ham hisobga olish zarur. Bunday integrallashgan tahlil usuli tilning ijtimoiy funksiyasini to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Maishiy leksikani tizimlashtirish va samarali o'rganish uchun esa uni tematik asosda leksik-semantik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bizgacha olib borilgan tadqiqotlardagi semantik tasniflarni umumlashtirgan holda maishiy leksikani tizimli o'rganishda esa uni oltita leksik-semantik guruhga ajratib tahlil qilish mumkin. So'z boyligini tematik jihatdan tartibga solishda qulaylik yaratuvchi mazkur tasnifni quyidagicha aks ettirish mumkin:



1-rasm. Maishiy leksikaning semantik guruhlanishi

Chog'ishtirilayotgan tillar maishiy leksikasini boyitishning asosiy manbai tilning ichki resurslari bo'lib, unda, asosan, "so'z yasashning leksik-semantik, morfologik va sintaktik usullari qo'llaniladi"¹⁰. Tillarning maishiy leksikasi tarkibini faol va passiv qo'llanish nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, "jamiyat taraqqiyoti sari o'tib ketayotgan narsa va hodisalar bilan birga ularning nomlari ham tildan chiqib ketadi"¹¹. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar, shuningdek, boshqa sabablarga ko'ra, masalan, asrlar

¹⁰ де Менезеш О. Ю. Предметно-бытовая лексика чешского и русского языков в ономаσιологическом аспекте : Дис. ... канд. филол. Наук. – М.: 2000. – 14 с.

¹¹ Ермакова Л.И. Сельскохозяйственная и бытовая лексика, русских говоровсеверной Молдавии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Кишинев: 1964. – 13 с.

davomida shakllangan maishiy leksikaning asosiy tashuvchisi bo'lgan ajdodlarimizning asta-sekin o'tib ketishi tufayli ayrim leksemalar deaktualizatsiya (faol qo'llanilishdan chiqish) hodisasiga uchramoqda, ayrimlari esa butunlay yo'qolib ketmoqda. Shuning uchun tillarning maishiy leksikasini to'liq to'plash va o'rganish katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Bunday tadqiqot materiallari har xil turdagi lug'atlar yaratish, shuningdek, xalqlar tarixi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining ayrim masalalarini yoritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maishiy leksikada so'z ma'nosining ixtisoslashuvi ham kuzatiladi, ya'ni so'zning ma'lum bir ma'noda mos kelishi cheklanadi. Shuningdek, umumiylik asosida ma'noni ko'chirish holatlarida ifodalangan leksik birlikning semantikasida ma'no torayishi kuzatiladi, asl ma'no esa yangi ma'noning barcha xususiyatlarini to'liq o'zida qamrab ola boshlaydi. "Eskirgan yoki yo'qolib borayotgan maishiy leksikaga oid so'z va iboralar xalq so'zlashuv uslubida faqat nominativ funktsiyani bajaradigan, ko'pincha, "maxsus so'zni emas, faqat maxsus vazifadagi so'zni" ifodalaydigan leksik birliklarga aylanadi. Bunday til birliklarida yashiringan maxsus ma'no esa aksariyat holatlarda atama yaratish uchun asos bo'ladi"¹².

Qiyosiy-chog'ishtirilayotgan tillarning lug'at qatlamidagi maishiy leksika uzoq o'tmishdan beri tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Bundan hanuzgacha chop etilgan qator germaniyalik, o'zbekistonlik va rossiyalik tilshunoslarning tadqiq qilingan ishlari darak beradi. Nemis leksikologlari ilmiy ishlarida uy-ro'zg'or, oshxona, kiyim-kechak, oziq-ovqat va kundalik faoliyat bilan bog'liq so'zlar keng yoritilgan, ularning etimologiyasi, struktur-semantik xususiyatlari, denotativ va konnotativ ma'nolarini, jumladan, ma'no torayishi va kengayishini tahlil qilgan. O'zbek tilshunoslari milliy tikuvchilik, hunarmandchilik, gilamchilik, chevarchilikka oid terminlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, leksik-grammatik tabiati va lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini aniqlashgan. Rus tilshunoslari maishiy leksemalarni ham diaxron, ham sinxron aspektda o'rganib, ularning tashqi va ichki shakllarini (ma'nosi) atroflicha tahlil qilishgan.

O'zbek, nemis va rus tillarining maishiy leksikasini qiyosiy-chog'ishtirma jihatdan o'rganish orqali ularning struktura, semantika va funksional vazifalaridagi o'xshashliklar va farqlar ochib berildi. O'xshash semantik guruhlar (masalan, ovqat tayyorlash, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari) barcha tillarda mavjud bo'lsa-da, ularning ifodalanish usuli, sinonimiya darajasi va so'z yasash xususiyatlari sezilarli farq qiladi. Bu farqlar tilshunoslikdagi universal va milliy xususiyatlarning uyg'unligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **"O'zbek, nemis va rus tillarida maishiy leksemalar evolutsiyasining qiyosiy-chog'ishtirma va diaxronik tahlili"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi 5 fasldan iborat bo'lib, bobning har bir faslida qiyosiy-chog'ishtirilayotgan tillarda o'tov, ot-ulov anjomlari, kiyim-kechak, taqinchoq va

¹² Кутина Л. Л. Формирование языка русской науки. – Л.: 1964. – С. 205.

taom nomlari kabi leksik-semantik guruhlar asosida tahlilga tortirilib, ularning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari ochib berilgan.

1. O‘tov anjomlari nomlari

“O‘tov – Markaziy va O‘rta Osiyo, shuningdek, Janubiy Sibir ko‘chmanchilarida: yengil material, brezent, kigiz kabilardan konussimon shaklda yasalgan ko‘chma uy, turarjoy”¹³. O‘zbek adabiy tili va uning shevalarida ko‘p yillardan beri qo‘llanilib kelinayotgan o‘tov so‘zi tog‘ bag‘rida, yaylovlarda gumbaz shaklida tiklanadigan ko‘chma turar joy” hisoblanib, X.X.Berdiyevning ta’kidlashicha, “Oltoy hududlarida II asrning boshlarida yuzaga kelgan”¹⁴. Ushbu leksik birliklar, asosan, o‘zbek xalqi va unga qardosh bo‘lgan xalqlar madaniyatida turli shakllarda, ammo bir xil ma’noda ishlatilgan:

O‘zbekcha - o‘tov	Ozarbayjoncha - otaq	Yoqutcha - otay
- Turkcha - otak - Turkmancha - otay - Qozoqcha - otaw - Qirg‘izcha - oto	- Qaraqolpoqcha - otaw - Oltoycha - odu - Uyg‘urcha - otaq	- Qoraxoniy-uyg‘urcha - otay - Chig‘atoycha - otay - Qumuqcha - otaw

2-rasm. Turkiy tillarda o‘tov leksikasining turli shaklda kelishi

Rossiyalik tilshunos N.A. Ivanova o‘tovning boshqa xalqlar, jumladan, rus tilida keng tarqalgan yana bir nomini ilmiy asarida quyidagicha keltiradi: “юрта – у некоторых кочевых народов Азии и Южной Сибири: переносное, конусообразное формы жилище, крытое кошмами, звереными шкурами”¹⁵. Shuni ham qayd etish kerakki, rus tilidagi *юрта* leksemasining nemis tilida ekvivalenti mavjud emas. Shu sababli ba’zi turkiy xalqlar tillarida o‘tov leksemasining sinonimi sifatida keng qo‘llaniladigan *yurta* so‘zi *die Jurte*¹⁶ bo‘lib, rus tili orqali nemis tiliga kirib kelgan va manbalarda uning ma’nosi “*Lagerplatz, Land, Wohnort, Heimat*”¹⁷ deb izohlangan. Ushbu tahlildan shuni xulosa qilish mumkinki, nemis tilidagi *die Jurte* aslida rus tilidagi “юрта” so‘zidan o‘zlashgan.

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, *die Jurte* so‘zi o‘zbek tilidagi o‘tov so‘zining nemischa tarjimasini sifatida G.Jdger¹⁸, E.Schwarz¹⁹, K.D.Bünting, L.Hoffmann²⁰, E.Konrad²¹, J.P.Lanwer²² kabi nemis lingvistlarining ishlarida tavsiflangan.

¹³O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023. – B. 466.

¹⁴ Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд: 2017. – 10 б.

¹⁵ Иванова Н.А. Сопоставительно-типологический анализ безэквивалентной лексики (на материале русского, немецкого и французского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 2004. – С. 912.

¹⁶ Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. – Chur/Schweiz: Isis Verlag AG, 1996. – S. 593.

¹⁷ <http://www.jurte.info/ger.htm> (Murojaat sanasi: 30.09.2025).

¹⁸ Jäger G. Einführung in die Klassische Philologie. – Berlin: De Gruyter, 2020. – S. 15.

¹⁹ Schwarz E. Die Mongolen: im Reich des Dschingis Khan. *Mongols-History*, 2005. – S. 132.

²⁰ Ludger H. Alltagssprache. Erzählen aus funktional-pragmatischer Perspektive. In: Zeitschrift für Literaturwissenschaft und Linguistik 48/2. München: Fink Verlag, 2018. – S. 203-224.

²¹ Ehlich K. Alltägliche Wissenschaftssprache. In Info DaF 26, 1. 1999. – S. 24.

²² Lanwer J.P. Regionale Alltagssprache: – Berlin & Boston: De Gruyter. 2015. – S. 78.

O‘zbek tilida *o‘tov* bilan bog‘liq bir qator leksemalar mavjud bo‘lib, quyidagi jadvalda ularni o‘zbek, nemis va rus tillari kesimida ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

O‘zbek, nemis va rus tillarida o‘tov bilan bog‘liq leksemalar

O‘zbek tilida	Nemis tilida	Rus tilida
keraga	das Scherengitter	решётчатые складные стенки
chang‘aroq	der runde Dachkranz	деревянный круг
uvuq	der Sparren	длинные жерди
kigiz	der Filzteppich	войлочный ковер
chiy (yoki bo‘yra)	die Schutzmatte aus Federgras	чий (мат)
erganak	die Тър, Pforte	калитка
tuynuk	das Rauchloch	дыра

2. Ot-ulov anjomlari nomlari

Maishiy leksikaning yana bir yirik leksik-semantik guruhi, ot-ulov anjomlari nomlari asta-sekin unutilib borayotgan leksemalar hisoblanadi.

2-jadval

Qiyosiy-chog‘ishtirilayotgan tillarda ot-uluv anjom nomlari

O‘zbek tilida	Nemis tilida	Rus tilida
• <i>yugan</i> • <i>egar</i> • <i>uzangi</i> • <i>taqa</i> • <i>qamchi</i> • <i>xurjun</i>	• <i>der Zaum</i> • <i>der Sattel</i> • <i>der Steigbügel</i> • <i>der Hufeisen</i> • <i>die Peitsche</i> • <i>die Satteltasche</i>	• <i>узда</i> • <i>седло</i> • <i>стрема</i> • <i>подкова</i> • <i>хлыст</i> • <i>вьюк</i>

O‘zbek tilida “*yugan* ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvluq, tizgin va qayish tasmalaridan yasalgan abzal sanaladi”²³. Ushbu leksema badiiy matnlarda ham keng uchraydi. “*Oyqiz bo‘lsa bir qo‘li bilan yuganni ushlab, otni boshqarardi*”²⁴.

K.D.Bünting nemis tilidagi *der Zaum* – *yugan* nemis tili izohli lug‘atida unga quyidagicha izoh bergan: “*Vorrichtung, die aus dem Riemenzeug und der Trense besteht und die um den Kopf von Reit oder Zugtieren gelegt wird, um sie lenken zu können* – ot-ulovni boshqarish uchun uning bosh va og‘iz qismiga kiydiriladigan anjom, asosan otlarga qo‘llaniladi”²⁵. Nemis tilida ushbu anjom nomi bilan bog‘liq bir nechta iboralar bor, misol uchun: “*jemanden oder sich, etwas im Zaum halten* – “*jemanden oder sich etwas zügeln, mōЯigen, unter Kontrolle halten. (sich, seine*

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 73.

²⁴ Rashidov Sh. Bo‘rondan kuchli. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1981. – B. 121.

²⁵ Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. – Chur/Schweiz: Isis Verlag AG, 1996. –S. 1342.

Geföhle im Zaum halten)²⁶ – ‘biror kimni yoki o‘zini nazoratda ushlab turish, his tuyg‘ularini tiyib tura olish’ kabi ma’noni anglatadi.


S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedova kabi olimlar rus tilining izohli lug‘atida *der Zaum* – *yugan* leksemasining rus tilidagi ekvivalenti sifatida *узда* so‘zini keltirishgan. Shuningdek, ushbu so‘z lug‘atda “часть сбруи – ремни с удилами и поводьями, надеваемые на голову упряжного животного”²⁷ deya izohlanganini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotda har bir maishiy leksema uchta til doirasida izchil tortilgan va ularning kelib chiqishi, semantikasi, strukturasi va milliy-madaniy xususiyati haqida ma’lumotlar qayd etilgan.

3. Kiyim-kechak nomlari

Insoniyatning kiyinish ehtiyojini o‘tovchi buyumlar majmuining umumiy nomi o‘zbek adabiy tilida *kiyim*, *kiyim-kechak*, *kiyim-bosh*, *ust-bosh*, *libos*, *sarpo* kabi umumiy nomlar bilan ifodalanadi. Zero, “an’anaviy kiyimlar uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, u yoki bu xalq yashagan geografik muhit, uning xo‘jalik shakli, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, etnik qatlamlari va boshqa qator omillar bilan bevosita bog‘liq holda taraqqiy etib borganligi hech kimga sir emas”²⁸.

Kiyim-kechak nomlari leksik-semantik guruhiga kiruvchi maishiy leksik birliklarni quyidagi chizmada umumlashtirish mumkin:



3-rasm. O‘zbek, nemis va rus tillarida kiyim-kechak nomlari

O‘zbek tilida *ko‘ylak* leksemasi quyidagicha ta’riflangan: “*Ko‘ylak* – yoz (issiq) vaqtlarida ustdan kiyiladigan, yoqali va yengli, erkaklarniki beldan pastroqqacha, ayollarniki esa etagi uzun bo‘ladigan kiyim. *Chit ko‘ylak. Shoyi ko‘ylak. Atlas ko‘ylak. Erkaklar ko‘ylagi*”²⁹. Ushbu leksema bilan bog‘liq misollarni badiiy asarlar va iboralarda ham keng uchramiz. Masalan, “*Ko‘ylagining etaklari tong shudringidan ho‘l bo‘lib ketganiga, yengining uchlari ko‘karib qolayotganiga qaramay, chaqqon ishga kirishdi*”³⁰. “*Bir ko‘ylakni ortiq yirtgan, ya’ni yoshi katta, turmush tajribasi ko‘p, ko‘proq*

²⁶ Duden. 5-6. Band. – Mannheim, Wien, Zurich: Dudenverlag, 1977. – S. 2920.

²⁷ Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1990. – С. 2080.

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 365.

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 449.

³⁰ Ўткир Ҳошимов. Қалбингга қулоқ сол. –Тошкент: F. Фулом нашриёти, 2018. – Б. 456.

biladigan yoki *Bitta ko'ylagi ikkita bo'ldi* – moddiy ahvoli yaxshilandi, boyib qoldi ma'nosidagi iboralar tarkibida keladi: “Endi jir bitdi-da! Bitta ko'ylagi ikkita bo'ldi”³¹.

Nemis tilida juda mashhur kiyim-kechak nomlaridan biri *das Hemd – ko'ylak* leksemasi hisoblanadi. Nemis tilida *das Hemd – ko'ylak* so'ziga quyidagicha izoh beriladi: *Kleidungsstück mit einem hohen Kragen (ursprünglich nur für Jungen und Männer), das den Oberkörper bedeckt* – o'zbek tilida ma'nosi ‘baland yoqali kiyim, aslida faqat o'g'il bolalar va erkaklar uchun’. Mazkur *das Hemd – ko'ylak* leksemasi nemis tili iboralarida juda ko'p uchraydi. Masalan, “*Sein letztes Hemd für etwas oder jemanden hergeben (bor buduni biror narsa yoki kishi uchun bermoq, ishlatmoq, sarflamoq)*”³². Yoki yana bir maqol misolida: *das Hemd ist mir näher als der Rock – biror narsa yoki biror shaxs boshqasidan muhimroq*.

Ushbu kiyim rus tilida *рубаша* yoki *рубашка* deb atalib, S.I.Ojegovning “Словарь русского языка” lug'atida quyidagicha talqin qilingan: “*Рубахой называется просторная мужская одежда с рукавами и воротом, доходящая до по са или немного ниже*”³³.

4. Taqinchoq nomlari

Har bir til lug'atining ushbu turkum so'zlarini o'rganish nafaqat ularning semantik xususiyatlari haqida, balki shu tilda so'zlashuvchi xalqning moddiy madaniyati, uning tarixiy o'tmishi haqida ham tushunchaga ega bo'lishga imkon yaratadi. Ishimizda tahlilga tortilgan o'zbek taqinchoq nomlari: *to'g'nog'ich, tillaqosh, sirg'a, munchoq, tumor, bilaguzuk* realiyalar sifatida tavsiflanadi. Mazkur taqinchoqlarni quyidagi jadvalda nemis, o'zbek va rus tillaridagi ma'nolari bilan birgalikda keltirib o'tamiz:

3-jadval

O'zbek, nemis va rus tillaridagi taqinchoqlar nomlari

O'zbek tilida	Nemis tilida	Rus tilida
<i>to'g'nog'ich</i>	<i>die Sicherheitsnadel</i>	<i>блуза (булавка)</i>
<i>tillaqosh</i>	<i>die Diade</i>	<i>диадема</i>
<i>sirg'a (zirak)</i>	<i>der Ohrring</i>	<i>серьга</i>
<i>munchoq</i>	<i>die Perle</i>	<i>бусы</i>
<i>tumor</i>	<i>das Amulett</i>	<i>амулет</i>
<i>bilaguzuk</i>	<i>das Armband</i>	<i>браслет</i>

To'g'nog'ich – “to'g'nash, qadash, mahkamlash uchun ishlatiladigan moslama (masalan, bir uchi to'mtoq igna, o'tkir uchi uyachasiga tushib mahkamlanadigan asbob, sochga qadaladigan tutqich)”³⁴. “U tarixan Hozirgi

³¹ Абдулла Қаҳҳор. Қўшчинор чироқлари. –Тошкент: Ф. Ғулом нашриёти, 1987. – Б. 173.

³² Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. – Chur/Schweiz: Isis Verlag, 1996. – S. 510.

³³ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/dmitriev/4697/> (Murojaat sanasi: 30.09.2025).

³⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020.– Б. 256.

O‘zbekistonning hududida joylashgan Shimoliy Baqtriyaning Sopolli madaniyati aholisi tomonidan keng foydalanilgan taqinchoq turlaridan biri hisoblangan”³⁵.

Nemis tili manbalarida *Sicherheitsnadel* – to‘g‘onog‘ich leksemasi quyidagicha izohlanganligining guvohi bo‘ldik: “Gerät aus einer besonders gebogenen verschließbaren Metallnadel, mit der etwas fest an etwas geheftet werden kann”³⁶.

Ushbu taqinchoq nomi rus tilida *блужа (bulavka)* ko‘rinishida tarjima qilinib, “игла с головкой, служащая для прикалывания или (с красивой головкой) для украшения” ma’nosida qo‘llaniladi³⁷.

5. Taom nomlari

Har bir millatning madaniyatida taom tayyorlash va unga nom berish borasida o‘ziga xoslik mavjud. Ushbu xususiyatlar betakror taomlarning kashf etilishiga, milliy oshxonaning boyib, taom nomlarining rang-barangligiga sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, ma’lum bir hududda yashayotgan xalqlarning madaniy aloqalari taom nomlarini qo‘llashda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ishimizda tahlilga tortilgan taom nomlarining ayrimlarini chog‘ishtirma-qiyosiy tillarda jadval ko‘rinishida quyidagicha aks ettirish mumkin:

4-jadval

O‘zbek, nemis va rus tillaridagi taom nomlari

O‘zbek tilida	Nemis tilida	Rus tilida
<i>ugra</i>	<i>Nudelsuppe</i>	<i>суп-лапша</i>
<i>xonim</i>	<i>Khanum</i>	<i>ханум</i>
<i>mastava</i>	<i>Mastava</i>	<i>мастава</i>
<i>atala</i>	<i>Mehlsuppe</i>	<i>болтушка</i>
<i>chuchvara</i>	<i>Maultaschen</i>	<i>пельмени</i>
<i>tandir kabob</i>	<i>Kebab /kebab</i>	<i>кебаб</i>
<i>holva</i>	<i>Halva, halwa</i>	<i>халва</i>
<i>hasip</i>	<i>Hasip (Hasyp)</i>	<i>хасип/ хасып</i>
<i>kalla-pocha</i>	<i>Kala Patscha Suppe / die Lammkopfsuppe</i>	<i>калла-поча</i>
<i>qazi</i>	<i>Kazy/Kazi</i>	<i>казы</i>
<i>biqtirma/dimlama/bostirma</i>	<i>Eintopfspeise</i>	<i>дымлямы/димлама</i>

Qazi “arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, otning to‘sh va peshnop go‘shiti va shunday go‘shidan otning yo‘g‘on ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti”³⁸ hisoblanadi. Bu so‘zning etimologiyasini o‘rganish jarayonida ot leksemasining qadimgi turkiy tilda [*qazi*] tarzida talaffuz qilinganligi bilan bog‘liqligi aniqlandi³⁹. Keyinchalik o‘zbek tilida **a** unlisi **д** unlisiga almashgan, **i** unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan. Bu so‘z qadimdan turkiy tillarda, jumladan,

³⁵ Каттаева Г, Сополли маданияти тақинчоқларининг турлари ва вазифаси хусусида мулоҳазалар, Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 5 (2021) / ISSN 2181-1415.

³⁶ Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. – Chur/Schweiz: Isis Verlag AG, 1996. – S. 1066.

³⁷ Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1990. – С. 128.

³⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Т.: “Университет”, 2009. – Б. 209.

³⁹ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк., II том Т.; Узб. ССР Ф.А. нашриёти, 1961. – Б. 243.

o'zbek, 'qorin go'shtining kindik atrofidagi yog'li qismi' ma'nosini anglatib kelmoqda. Qazi turkiy xalqlarning sevimli taomi bo'lib, ularning tillarida turli xil fonetik variantlarda uchraydi: o'zbek. *qazi*, qozoq. *qazi*, qirg'iz. *kazi*, boshqird. *kazi*, tatar. *kazilik*, qrimtatar. *k'azilik*'. Qazi bilan birga *qarta* so'zi ham leksik birlik sifatida xalq maqollari va badiiy matnlarda keng uchraydi:

Qazi bilan qarta yedim, qornimda yo 'q.

Atlas bilan kimxob kiydim, egnimda yo 'q (maqol).

“O'n yetti otning eti, moyi, qazisi degandek, ikki yuz sakson pud oralarida tosh beradi”⁴⁰. Nemis tili lug'atlarida bu taom nomi – *qazi* mavjud emas. Biroq internetdagi nemischa matnlarida o'zlashgan so'z sifatida *kazy* va *kazi* kabi variantlarda uchraydi⁴¹.

Demak, bu leksemani nemis tilida o'zlashma *kazy* va *kazi* shaklida qo'llab, unga quyidagicha izoh berishimiz mumkin: “*Kazy auch kazi ist eine Wurst und sie wird aus Pferdefleisch und zwar der Darm des Pferdes wird mit einem ganzen fetten Stück Pferdefleisch und Gewürzen gefällt und hergestellt*”.

Rus tili manbalarida *qazi* leksemasi *казы* deb berilib, u “*конская колбаса, начинённая мясом и брюшным жиром*” deb izohlangan⁴². “Oshxona terminlari lug'ati”da esa *казы* so'ziga “*В Средней Азии, а также в Поволжье, так называют колбасу, готовящуюся из конины*”⁴³ ko'rinishda tushuncha berilgan. Shuningdek, internetdagi ruscha matnlarda uni *кази* yoki *казы* shaklida uchratish mumkin: “*Казы традиционная колбаса из конины у ряда тюркских народов, считающаяся деликатесом. Изготавливается путём набивания натуральной конской кишки конским жирным мясом с рёбер*”⁴⁴.

Lingvistik tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, har uch tilda maishiy leksikada lug'at boyligini oshirishning asosiy manbai tilning ichki resurslari ekanligi, ular, asosan, so'z yasashning morfologik, leksik-sintaktik, struktur-semantik va leksik-semantik usullari bilan shakllanadi.

Tadqiqotning “**Badiiy, OAV hamda rasmiy hujjatlar matnlarida maishiy leksikaning lingvomadaniy va funksional xususiyatlari**” deb nomlanuvchi uchinchi bobi 2 fasldan iborat va unda o'rganilayotgan tillardagi ekvivalentli (uy jihozlari, oshxona jihozlari va taom nomlari kesimida) va ekvivalentsiz (uy-ro'zg'or, kiyim-kechak va taqinchoq nomlari kesimida) maishiy leksik birliklarning tahlili ochib berilgan.

Ekvivalentlik muammolariga o'z tadqiqotlarini bag'ishlagan o'zbek, nemis va rus tilshunoslarining soni talaygina. Bu borada O.Madayev, O.Kade, S.Xalverson, W.Koller, Yu.Nayda, Ya.I.Retsker, V.Komissarov, L.S.Barxudarov, R.Yakobson kabi olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlar tahsinga loyiq.

S.Xalversonning ilmiy nazariy xulosasiga ko'ra, “ekvivalentlik ikki obyekt o'rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi va ular har qanday salohiyat, fazilatlar nuqtai nazaridan o'xshashlik, tenglik munosabatlari sifatida tavsiflanadi”⁴⁵.

⁴⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Т.: “Университет”, 2009. – Б. 209.

⁴¹ <https://www.fleischtheke.info/internationale-fleisch-und-wurstspezialitaeten/kazy.php> (Murojaat sanasi: 30.09.2025).

⁴² Шипова, Е. Н. Словарь Тюркизмов в Русском Языке. – Алма-Ата: Наука, 1976. – С. 150.

⁴³ <https://1000.menu/vocab/kazi> (Murojaat sanasi: 30.09.2025).

⁴⁴ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/142405> (Murojaat sanasi: 30.09.2025)

⁴⁵ Halverson S. The Concept of Equivalence in Translation Studies. Target1-2.1997. – PP. 207-233.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, ekvivalentlik hodisasiga quyidagicha ishchi ta’rif berishni joiz deb topdik: *ekvivalentlik hodisasi - asl matn va tarjima matni o‘rtasida mazmun, maqsad va ta’sir darajasini kontekstual va madaniy moslik asosida muvozanatlashtiruvchi dinamik semantik moslashuv jarayonidir.*

O‘zbek tilidagi ekvivalentli leksikaga oshxona jihozlari kiruvchi qozon maishiy leksemasini misol sifatida keltirish mumkin:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qozon leksemasi quyidagicha izohlangan: “qozon – turli taomlar pishirish tayyorlash yoki suv isitish uchun cho‘yandan quyib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi”⁴⁶.

“Unday demang-e, hamsoya, – dedim. – Nimaga demayman, deyman! Umrim kattalarga **qozon** qaynatib o‘tdi! Yana-tag‘in, qirilgurlar unday-bunday taomni yemaydi! Bola-baqruga boshqa **qozon**, kattalarga boshqa **qozon** qaynataman. Bilmayman, kattalar osmondan tushganmi!”⁴⁷.

Nemischa Kaffeeanne Karl-Dieter Buntingning izohli lug‘atida quyidagicha berilgan. “Kaffeeanne – Kanne mit einem (langen) Schnabel, Henkel und Deckel, in der Kaffee serviert wird”⁴⁸ – ‘Kaffeeanne – qahva tortish uchun ishlatiladigan, (uzun) tumshug‘i, tutqichi va qopqog‘i bo‘lgan idish’.

Mazkur leksik birlik aslida ikkita Kaffee + Kanne so‘zlaridan hosil bo‘lib, qahva quyib berish uchun mo‘ljallangan maxsus idish (o‘zbeklardagi choynak kabi) bo‘lib, kundalik hayotda nemis oshxona jihozlari orasida eng ko‘p ishlatiladigan an’anaviy buyumdur.

Самовар leksemasi etimologiyasi borasida G.A.Krilov quyidagicha fikr bildiradi. “Название этого прибора для кипячения воды образовано сложением основ сам и вар(ить)”⁴⁹.

Mazkur oshxona jihozi rus milliy madaniyatida shunchaki choy qaynatish uchun mo‘ljallangan idish emas, balki rus ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, oila a’zolar va mehmonlar samovar atrofida yig‘ilib, uzoq suhbat qurishi, uy iliqligi va yaqinlik timsoli hamda mehmonga alohida e’tibor va samimiy muomala ma’nosini ifodalaydi.

Madaniyat	Oshxona jihozlari	Lingvomadaniy ma’nosi
O‘zbek tili	qozon	baraka, birlik, mehmondo‘stlik, marosimiylik.
Nemis tili	die Kaffeeanne	tartiblilik, qahva madaniyati, qulaylik, osoyishta muloqot.
Rus tili	самовар	uy iliqligi, choy madaniyati, suhbat, an’anaviylik.

4-rasm. Oshxona jihozlari nomlarining qiyosiy tahlili

“Har bir til o‘zining milliy-madaniy mazmuni, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayot tarziga mos ravishda shakllangan leksik tizimga ega. Shu bois, ba’zi so‘zlar

⁴⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 323.

⁴⁷ Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Отамдан колган далалар. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2019. – Б. 109.

⁴⁸ Karl-Dieter Bunting. Deutsches Wörterbuch. – Chur/Schweiz: Isis Verlag AG, 1996. – S. 596.

⁴⁹ Крылов Г.А. Этимологический словарь русского языка. - СПб.: ООО «Полиграфуслуги», 2005. – С. 351.

yoki iboralar boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega bo'lmaydi. Bunday leksik birliklar *ekvivalentsiz leksika* deb ataladi"⁵⁰ va u, asosan, realiyalarga, milliy an'analariga, tarixiy yoki madaniy hodisalarga oid bo'lib, ularni boshqa tilga to'laqonli tarjima qilish qiyin bo'ladi. Ushbu so'zlar tarjimada izohli ifodalar, kalkalar yoki fonetik transkripsiyalar yordamida berilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida ekvivalentsiz leksika *tandir, sandal, beshik, xontaxta, piyola, do'ppi, to'n, mahsi, tumor, ko'zmunchoq* kabi so'zlar milliylikni namoyon etadi.

Do'ppi o'zbek milliy madaniyatining eng tanilgan belgilaridan bo'lib, o'tmishda turkiy va forsiy xalqlar orasida keng tarqalgan. U Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbeklarning uzoq yillik tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Qo'shimcha ma'lumot o'rnida yana shuni ta'kidlash joizki, do'ppiga qadar bu hududlarda *kuloh, qalpoq, salla* va *araqchin* kabi bosh kiyimlar ham aholi orasida keng qo'llanilgan.

Lingvomadaniy jihatdan do'ppi milliylik belgisi, yosh, jins, ijtimoiy mavqe va biror bir hududga mansublik, milliy bayram, tadbir va marosim kiyimi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'zbek tilida mazkur leksema nafaqat bosh kiyimni, balki sog'lik-omonlik, quvonch, beg'amlik, tanglik kabi madaniy mazmunni anglatuvchi xalq maqollari va iboralari tarkibida ham keng uchraydi. Masalan, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar, do'ppisini osmonga otmoq, do'ppisi yarimta, do'ppi tor keldi* va boshqalar.

Der Hut – *Diesmal nun war es Frau Chauchat gewesen, die herausgekommen war, lächelnd, den Arm voller Blumen, in langem, rauhem, mit Pelz besetztem Reisemantel und großem Hut, begleitet von Herrn Buligin, ihrem konkaven Landsmann, der ein Stück Weges mit ihr reiste*⁵¹.

Nemis tilidagi *der Hut* leksemasi qadimgi german tillariga borib taqaladi. U qadimgi yuqori nemis tilidagi *huot*, qadimgi ingliz tilidagi *hōd*, ingliz tilidagi *hat* kabi shakllar bilan etimologik jihatdan bog'liq bo'lib, umumgerman *hattu* shaklidan kelib chiqqan. Mazkur leksema german tillarida bosh kiyim nomini bildiruvchi qadimiy leksik birlik hisoblanadi⁵².

Nemischa *der Hut* turli lingvomadaniy variantlarga ega bo'lib, ular orasida *Trachtenhut, Tirolerhut, Alpenhut, Homburger Hut* va *Bollenhut* eng muhim turlar hisoblanadi. Ushbu bosh kiyimlar nemis xalqining hududiy xususiyatlari, ijtimoiy mavqei va milliy madaniy an'alarini aks ettiradi.

Ушанка yoki *шапка* – *ушанка* va *кокошник* rus madaniyatida eng an'anaviy milliy bosh kiyimlar bo'lib, ular o'ziga xos tuzilishi, qulayligi, funkcionalligi va ajoyib tashqi ko'rinishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa *ушанка* qishning sovuq kunlarida jun yoki mo'ynasi bilan issiqlik va qulaylikni ta'minlaydi. U Rossiyada vatanparvarlik va milliy xarakterni ifodalaydi. Xozirgi kunda ham dunyoda uni rus madaniyati va an'anasining belgisi deya talqin qilishadi.

⁵⁰ Дорохова Ю.Э. Проблема эквивалентности и безэквивалентности в переводе и двуязычной лексикографии // *Lingua mobilis*. 2013. №4 (43). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-ekvivalentnosti-i-bezekvivalentnosti-v-perevode-i-dvuyazychnoy-leksikografii> (дата обращения: 17.09.2025).

⁵¹ Thomas Mann. *Der Zauberberg*. Roman. – Berlin: Fischer Verlag, 1952. – S. 444.

⁵² Kluge F. *Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache*. – Berlin, New York: Walter De Gruyter, 1975. – S. 322.


Ушанка rus milliy madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lib, uzoq yillik tarixga ega. Dastlab XVI asrlarda baxt va omad ramzi sifatida uni kiyib yurish aholi orasida keng tarqalgan.

Madaniyat	Bosh kiyim	Lingvomadaniy ma'nosi
O'zbek tilida	<i>Do'ppi</i>	<i>Milliylik, an'ana, etnik o'zlik, odob va madaniy mansublik ramzi</i>
Nemis tilida	<i>der Hut</i>	<i><u>Jitimoiy mavqe, tashqi madaniyat, tartiblilik va individual uslub ifodasi</u></i>
Rus tilida	<i>ушанка</i>	<i>Sovuq iqlimga moslashuv, chidamlilik, milliy turmush tarzi va rusona identitet ramzi</i>

5-rasm. Bosh kiyim nomlarining qiyosiy tahlili

Do'ppi, *der Hut* va *ушанка* leksemalari turli xalqlarning milliy bosh kiyimlarini ifodalovchi birliklar bo'lib, ushbu leksemalar semantik jihatdan umumiylikka ega bo'lsa-da, ularning lingvomadaniy mazmuni har bir xalqning iqlim sharoiti, turmush tarzi va milliy madaniy mentaliteti bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur birliklar milliy kiyim-kechak leksikasida o'ziga xos semantik va lingvomadaniy xususiyatlarga ega.

Ishimizda o'zbek, nemis va rus tillariga tegishli maishiy leksikaga oid bo'lgan 100 ta leksema tahlil uchun tanlab olindi. Ulardan 23 tasi uy jihozlari nomlari bo'lib, 19 tasi har uchala tilda ham o'z ekvivalentiga ega, biroq 4 tasi ekvivalentsiz ekanligi aniqlandi. Tahlillarimiz jarayonida oshxona jihozlari nomlariga oid 32 ta so'z kuzatilib, ularning 7 tasi o'z ekvivalentiga ega, biroq 5 tasi ekvivalentsiz leksika sifatida tavsiflandi. Shuningdek, kiyim-kechakka oid 14 ta so'zning 8 tasi o'z muqobil variatiga ega, 6 tasi tarjima jarayonida faqat transliteratsiya usulida qo'llanilishi mumkinligi kuzatildi. Aniqlangan 10 ta taqinchoq nomlari orasida 7 ta ekvivalentli, 3 ta ekvivalentsiz leksika mavjudligining guvohi bo'ldik. Tahlilda kuzatilgan taom nomlar jami 21 ta bo'lib, shulardan 8 ta leksik birlikning ekvivalenti mavjud, 13 ta so'z esa o'z ekvivalentiga ega emasligi aniqlandi:



6-rasm. O'zbek, nemis va rus tillaridagi uy-ro'zg'orga oid maishiy leksikaning elvivalentligiga ko'ra statistik natijalari

Qiyoslanayotgan va chog‘ishtirilayotgan tillarda maishiy leksika uch madaniyatning o‘ziga xos etimologik xususiyatlariga ega. Bunday so‘zlarning ayrimlari ekvivalentli bo‘lsa-da, ularning ma’nosi tilda va madaniyatda farqlanadi. Ekvivalentsiz leksika esa boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobil so‘zi bo‘lmagan terminlarni o‘z ichiga oladi. Bunday so‘zlar til qatlamining realiyalari bo‘lib, lingvokulturemalar sifatida tavsiflanadi hamda ular har bir tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini yaqqol namoyon qiladi.

XULOSA

1. Tadqiqot jarayonida “maishiy leksika” tushunchasining o‘zbek, nemis va rus tilshunosligidagi ilmiy-nazariy parametrlari qiyosiy o‘rganilib, bu terminning keng tushuncha ekanligi isbotlandi. Maishiy leksika nafaqat kundalik iste’mol buyumlarini, balki insonning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, urf-odatlar va milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi til birliklari majmuasidir. Turli tizimli tillarda maishiy leksikani tadqiq etish xalqning moddiy madaniyati va til taraqqiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maishiy leksikani tizimli o‘rganish tilning lug‘at tarkibi dinamikasini tushunishda markaziy o‘rinni egallaydi va bu boradagi ilmiy qarashlar har uchala tilda ham o‘z rivojlanish bosqichlariga ega ekanligi asoslangan.

2. Tadqiq qilinayotgan tillarda maishiy leksikaning leksik-semantik maydon komponentlari, ya’ni mebel, kiyim-kechak, idish-tovoq va uy-joy kabi mavzuiy guruhlar aniqlandi va tizimlashtirildi. Ushbu sohalardagi leksemalarning semantik munosabatlari qiyosiy tahlil qilinganda, har bir tilning lug‘at boyligi va nomlanish usullari turlicha ekanligi ma’lum bo‘ldi. Maydon komponentlarini miqdor va sifat jihatidan taqqoslash xalqlarning yashash sharoiti va dunyoqarashidagi farqlarni ilmiy jihatdan tushuntirish imkonini beradi.

3. O‘zbek, nemis va rus tillari maishiy leksikasining etimologik tarkibi o‘rganilganda, har bir tilda o‘zak va o‘zlashma qatlamlarning o‘zaro nisbati aniqlandi. O‘zbek tilida arab va fors tillaridan, rus tilida fransuz va nemis tillaridan, nemis tilida esa lotin va fransuz tillaridan o‘zlashgan maishiy birliklarning lingvistik adaptatsiyasi tahlil qilindi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida uy-ro‘zg‘or buyumlarining o‘zgarishi tilda yangi neologizmlarning paydo bo‘lishi va ayrim eski birliklarning arxaiklashuviga olib kelganligi diaxron aspektda yoritilgan.

4. Har bir xalqning maishiy leksikasi uning milliy-madaniy kodini saqlovchi asosiy manbalardan biri ekanligi dissertatsiyaning markaziy xulosalaridan biridir. O‘zbek tilidagi “dasturxon”, “cho‘mich”, nemis tilidagi “Gemütlichkeit” yoki rus tilidagi “camoBap” kabi birliklar shunchaki predmet nomlari emas, balki chuqur madaniy ma’noga ega tushunchalar ekanligi aniqlandi. Ayrim maishiy birliklarning tahlil qilish orqali ularning mentalitet bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Mazkur lingvomadaniy tahlil tarjima jarayonida madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarning oldini olish va madaniy moslashuv muhimligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

5. Maishiy leksikaning boyishi va yangi birliklarning hosil bo'lishida har bir til o'zining ichki qonuniyatlariga tayanadi. Nemis tilida kompozitsiya (so'z qo'shish) usuli bilan murakkab maishiy nomlar (masalan, *K chenutensilien*) yasalishi, rus tilida esa suffiksatsiya (masalan, *choynak*) yetakchi o'rin tutishi aniqlangan. O'zbek tilida so'z qo'shish va yangi tushunchalarni sintaktik usul bilan ifodalash ustunlik qiladi (masalan, *muzlatkich*, *oshxona anjomlari*). Bu modellar tahlili tillarning tipologik xususiyatlarini maishiy leksika misolida yaqqol ko'rsatib beradi. So'z yasash modellarining qiyosiy tahlili har bir til yangi texnik vositalarni nomlashda o'z resurslaridan qanday foydalanishini tushunishga yordam beradi.

6. Tadqiqotda har uchala tildagi maishiy leksikaning ko'chma ma'no, metafora va metonimiya asosida yangi ma'no kasb etishi masalalari o'zaro qiyoslandi. Masalan, idish-tovoq yoki kiyim-kechak nomlarining inson xarakteri yoki ijtimoiy holatini ifodalash uchun qo'llanilishi o'zbek va rus tillarida o'xshash bo'lsa, nemis tilida o'ziga xos pragmatik ma'nolarga ega. Ma'no ko'chishi jarayonida maishiy birliklarning ekspressiv-emotsional bo'yodqorligining kuchayishi va ularning nutqiy vaziyatga moslashuvi tahlil qilindi. Bu esa leksik birliklarning nafaqat nominativ, balki baholovchi vazifasini ochib beradi va tilning kognitiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

7. Jamiyat taraqqiyoti va texnologik taraqqiyot natijasida maishiy leksikaning lug'at tarkibida kuchli mobillik mavjudligi aniqlandi. Tadqiqotda ko'plab tarixiy maishiy birliklarning passiv qatlamga o'tishi (masalan, *chars*, *o'tloq*, *vereno*) va ularning zamonaviy maishiy texnika nomlari bilan almashtirilishi (masalan, *mikroto'lqinli pech*, *idish yuvish mashinasi*) tahlil qilingan. Bu jarayonda xalqaro terminlarni o'zlashtirish va ularning milliy tillardagi muqobillarini yaratish turli darajalarda yuz berishi asoslangan. Maishiy neologizmlarning o'zlashtirish darajasi va ularning til tizimidagi o'rni jamiyatning til siyosati va madaniy ochiqqligini belgilovchi omil sifatida baholandi.

8. Tadqiqotning amaliy qismida o'zbek, nemis va rus adabiyoti namunalarida maishiy leksikaning qo'llanilishi va uning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilingan. Yozuvchi qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, yashash muhiti va ruhiy holatini tasvirlashda maishiy detallardan muhim vosita sifatida foydalanishi ko'rsatib berildi. Masalan, realistik asarlarda maishiy leksika davr ruhini ifodalashga xizmat qilsa, modernistik asarlarda ramziy ma'no kasb etishi mumkinligi isbotlangan. Badiiy matn tahlili orqali har uchala tildagi asarlar misolida maishiy birliklarning matnni shakllantirish va obraz yaratishdagi kuchi isbotlandi.

9. Maishiy leksikaning tarjimada berilishi dissertatsiyaning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, unda to'liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentsiz leksika holatlari o'rganilgan. Xususan, milliy realiyalarni tarjima qilishda kalkalash, transkripsiya va deskriptiv (tavsifiy) usullarning samaradorligi baholandi. Nemis tilidagi maishiy tushunchalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda madaniy tafovutlar tufayli yuzaga keladigan leksik lakunalar va ularni to'ldirish

yo'llari ishlab chiqildi. Tarjima tahlili shuni ko'rsatdiki, maishiy leksikani to'g'ri tarjima qilish tarjimondan nafaqat til bilimini, balki chuqur etnografik va madaniy bilimlarni ham talab qiladi.

10. Maishiy leksemalar asosida shakllangan frazeologizm va maqollar har uchala xalqning hayotiy tajribasi va falsafasini aks ettiradi. O'zbek tilida "osh," "non," "pichoq," rus tilida "каша," "щи," nemis tilida "Brot," "Wurst" kabi birliklarning frazeologik faolligi qiyosiy o'rganildi. Ushbu iboralarning ko'pchiligi funksional jihatdan bir-biriga mos kelsa-da, ularning obrazli asosi milliy xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Maishiy komponentli frazeologizmlar tahlili ushbu leksik qatlamning tilning milliy bo'yoqdorligini saqlashdagi beqiyos ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

11. Dissertatsiya natijalari oliy ta'lim muassasalarida leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti hamda mamlakatshunoslik fanlarini o'qitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot materiallaridan yangi avlod ikki va uch tilli o'quv va terminologik lug'atlarini tuzishda, ayniqsa, maishiy sohaga oid maxsus lug'atlarni boyitishda foydalanish tavsiya etiladi. Kelajakda maishiy leksikaning kognitiv va psixolingvistik jihatlarini o'rganish ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning mantiqiy davomi bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

АЛИМОВ ТОХИР ЭГАМШУКUROVИЧ

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
БЫТОВОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ, НЕМЕЦКОМ И
РУССКОМ ЯЗЫКАХ**

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2022.1.PhD/Fil2231.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Кулмаматов Дусмамат Саттарович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Юлдашев Акмал Гуламжанович
доктор филологических наук, профессор

Назаров Сардор Хасанович
доктор философии по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

**Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «10» августа 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, Г9-А, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91. Факс: (99871) 230-12-92. электронная почта: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № 1237). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, Г9-А, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91. Факс: (99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «17» июня 2026 г.

(Реестр протокола рассылки № 12 от «17» июня 2026 г.).



А.А.Насиров
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, док.
филол. наук, профессор

Х.Б.Самигова
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
док. филол. наук, профессор

Ж.А.Якубов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению учёных степеней, док.
филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире изучение лексического пласта разносистемных, в том числе родственных и неродственных языков на сравнительно-сопоставительной основе является одним из приоритетных направлений современной лингвистики. В последние годы особое внимание уделяется изучению семантических и функциональных особенностей бытовой лексики в рамках сравнительной лексикологии, семантики, лингвокультурологии и корпусной лингвистики. Однако вопросы комплексного исследования структурно-семантических, функциональных и лингвокультурологических особенностей бытовых лексем в узбекском, немецком и русском языках на основе единой сравнительной методологии освещены недостаточно. Поэтому комплексное изучение бытовой лексики этих языков в сравнительно-сопоставительном и лингвокультурологическом аспектах и внедрение результатов в практику сравнительного языкознания, переводоведения и преподавания иностранных языков является актуальной научно-практической задачей.

В мире в условиях развития языка и глобализации возрастает интерес к изучению лексики европейских и восточных языков на сравнительно-сопоставительной основе. В частности, исследование семантических, функциональных и национально-культурных особенностей лексических единиц в области сравнительного языкознания, лексикологии, семантики, лингвокультурологии и корпусной лингвистики является одним из приоритетных научных направлений. Вместе с тем, комплексное изучение происхождения, семантического развития и функциональных особенностей бытовой лексики в разносистемных языках в лингвокультурологическом аспекте, выявление их универсальных и национальных признаков, а также внедрение результатов в практику переводоведения, межкультурной коммуникации и преподавания иностранных языков является актуальным научным направлением. С этой точки зрения сравнительно-сопоставительное исследование бытовых лексем в узбекском, немецком и русском языках служит обогащению теории сравнительного языкознания новыми научными результатами.

В нашей стране в последние годы особое внимание уделяется повышению престижа узбекского языка, укреплению его статуса как государственного языка, а также расширению научно-исследовательской деятельности в данном направлении. Подтверждением этому служит создание в нашей стране условий для его непосредственного взаимодействия не только с русским, но и с другими языками, в частности с немецким. «Известно, что национальный язык является бесценным достоянием, в котором отражаются история и самобытность, духовно-нравственный мир каждого культурного народа. Все мы хорошо понимаем, что в вопросе языка, являющемся для любого народа чрезвычайно чувствительным и значимым, необходимо, не поддаваясь излишним

страстям и эмоциям, действовать взвешенно, с дальним прицелом. Ведь государственный язык развивается не только благодаря специалистам данной сферы, но и благодаря совместным усилиям, интеллекту, духовно-просветительскому потенциалу и патриотическим качествам всего нашего многонационального народа»

¹ В связи с этим актуальным является системное исследование национального лексического богатства узбекского языка на основе сравнительно-сопоставительного языкознания, комплексный анализ семантических, функциональных и лингвокультурологических особенностей бытовых лексем в узбекском, немецком и русском языках, выявление их универсальных и национальных особенностей, а также проведение научных исследований, направленных на внедрение результатов исследования в практику сравнительного языкознания, лексикографии, переводоведения и преподавания иностранных языков.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указы Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», от 10 апреля 2026 года № УП-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций», от 26 мая 2026 года № УП-98 «О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения» Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», от 20 октября 2025 года № ПП-308 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка»², а также в других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в

¹Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг 35 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – Тошкент, 2024, 21 октябрь // <https://president.uz/oz/lists/view/7628> (дата обращения: 30.09.2025).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 26-maydagi PF-98-son "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari.

соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей стране большой вклад в раскрытие различных аспектов бытовых лексем, в частности их структурно-семантических и лингвокультурных особенностей, внесли такие учёные, как С.Иброхимов, Т.Дадахонова, М.Асомутдинова, Т.Турсунов, Ю. К. Эшонкулов, Л. Гафурова, Ш. Нуруллаева, Ш. Усмонова, М. Абдиев, Х.Х.Бердиев, А.Э.Маматов, Д.С. Кулмаматов, Х. Л. Махаммадиев, С. Жуманова³.

В Германии категориальные особенности бытовой лексики были всесторонне исследованы такими лингвистами, как R. Wolfgang, K. Schröder, W.Dressler, K.Ehlich, B.Lehnert, W.Putsch, N.Dittmar, E.Schwarz, B.Schlücker, J. Lanwehrlar, H. Ludger, G. Jäger⁴.

В России такие лингвисты, как А.Ф.Иванова, Г. А. Власова, В. В. Виноградов, А. Юлдашев, А. К. Боровков, Л. В. Щерба, Г. В. Судаков, Р. А. Будагов,

